



SUN'IY INTELLEKTNI TIL O'RGANISHDA O'RNI VA MUHIMLIGI

Ismatov Mahmudjon Sobir o'g'li

*Jizzax PMM Tillarni o'qitish metodikasi
kafedrası katta o'qituvchisi.*

Annotatsiya. Maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining xorijiy til o'rganish jarayonidagi o'rni, afzalliklari va cheklovlari tahlil qilinadi. Duolingo, Babbel kabi SI asosidagi platformalarning o'quvchilarga moslashtirilgan mashqlar, xatolarni real vaqtda to'g'rilash, talaffuz va grammatika bo'yicha tezkor fikr bildirish kabi imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, SI o'quvchining bilim darajasiga qarab shaxsiy o'quv marshrutini yaratib, motivatsiyani oshirishi qayd etiladi. Biroq murakkab matn va madaniy kontekstni to'g'ri talqin qilishdagi cheklovlar, empatiya va ijtimoiy muloqotni boshqarishda inson o'qituvchining o'rnini to'liq bosa olmaslik muammolari ko'rsatilgan. Maqolada eng samarali model inson va SI uyg'unligi ekanligi, kelajakda VR va AR texnologiyalari bilan integratsiya til o'rganish yanada samarali bo'lishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, til o'rganish, individuallashtirilgan ta'lim, raqamli platformalar, til o'rgatish texnologiyalari.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotning barcha jabhalariga kirib bormoqda va ta'lim sohasida ham keng qo'llanilmoqda. Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari, ayniqsa, xorijiy til o'rganish jarayonida katta imkoniyatlar yaratib, o'quvchilarning bilim olish jarayonini yengillashtirmoqda. Bu texnologiyalar o'qitish samaradorligini oshirish, o'quv faoliyatini individuallashtirish va interaktiv muhit yaratish orqali til o'rganishni yangicha bosqichga olib chiqmoqda. Sun'iy intellektga asoslangan til o'rgatuvchi platformalar, xususan Duolingo, Babbel, Rosetta Stone kabi dasturlar o'quvchilarning darajasini aniqlab, ularga moslashtirilgan mashqlarni taklif etadi. Matn tahlili, ovoz tanish va avtomatik tahrirlash funksiyalari til o'rganayotgan kishining grammatik va talaffuz bo'yicha xatolarini tezda aniqlash imkonini beradi. SI vositalarining muhim jihatlaridan yana biri, ular doimiy ravishda javob qaytaradi, o'quvchi esa xatoni shu zahoti ko'rib, uni to'g'rilash imkoniga ega bo'ladi.

Shoisayeva Dilxumora Shojalil qizining tadqiqotida ta'kidlanganidek, sun'iy intellekt asosidagi intellektual repetitorlik tizimlari o'quvchilarning eslab qolish jarayonini optimallashtirib, nutqni tanish algoritmlari esa talaffuzning to'g'ri shakllanishiga yordam beradi. Bunday tizimlar o'quvchining bilim darajasiga qarab shaxsiy o'quv marshrutini yaratadi va individual o'qitish imkoni sezilarli darajada oshadi.

Sun'iy intellektning yana bir muhim afzalligi — motivatsiyani oshirishi. Hatamov Asadbek Azamat o'g'lining fikrlariga ko'ra, SI texnologiyalari



o'quvchining qiziqishlari asosida moslashtirilgan darsliklar yaratadi va bu o'quvchini mustaqil o'rganishga undaydi. Masalan, talaffuzda qiynalayotgan o'quvchi uchun tizim qo'shimcha audio mashqlarni taklif qiladi, grammatikada qiynalayotganlar uchun esa qo'shimcha qaytarish mexanizmlarini yaratadi.

Biroq sun'iy intellektning til o'rgatishdagi ayrim cheklavlari ham mavjud. Zokirov Ilxomjon Nodirovich va Akborov Xosilbek Murtozovich o'z izlanishlarida SI tizimlari murakkab matnlar yoki madaniy kontekstga asoslangan ifodalarni ba'zan noto'g'ri talqin qilishi mumkinligini qayd etadi. Shuningdek, sun'iy intellekt inson o'qituvchining empatiya, madaniy tajriba yoki ijtimoiy muloqotni boshqarish kabi sifatlarini to'liq almashtira olmaydi. Shu bois, eng samarali ta'lim modeli inson o'qituvchisi va sun'iy intellektning uyg'unlashgan holda ishlatilishidir.

Kelajakda sun'iy intellekt texnologiyalari VR (virtual reallik) va AR (kengaytirilgan reallik) bilan birlashib, yanada realistik va samarali til o'rgatish muhiti yaratilishi kutilmoqda. Bu o'quvchiga ona tilida so'zlashuvchilar bilan muloqot qilayotgandek sharoit yaratib, tilni tabiiy kontekstda o'rganish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt til o'rganish jarayonini soddalashtiruvchi, uni qiziqarli va samarali qiluvchi muhim texnologiyaga aylandi. U o'quvchilarga o'z bilimini chuqurlashtirish, mustaqil o'qish va o'z ustida ishlash imkonini beradi. Til o'rgatish jarayonining yangi bosqichi SI bilan chambarchas bog'liq bo'lib bormoqda va kelajakda bu integratsiya yanada kuchayishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shoisayeva D. Sh. Sun'iy intellekt va uning til o'rganishdagi o'rni. conference.uzswlu.uz
2. Hatamov A. A. Sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rganish jarayoniga ta'siri. conference.uzswlu.uz
3. Zokirov I. N., Akborov X. M. Sun'iy intellekt asosida xorijiy til o'rgatish masalalari. conference.uzswlu.uz